MUDDATIDAN OLDIN APNOE BILAN TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA NAFAS OLISHNI FARMAKOLOGIK STIMULYATSIYA QILISHNING KLINIK AHAMIYATI

Z.X. Ikromova,
B. G’aniyev,
A.Qurbonova,
I.SH. To’rayeva,
B.S. Ravshanova

Kirish: Apnoe – muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda tez-tez uchraydigan holat bo‘lib, o‘pka yetilmaganligi tufayli nafas olishning to‘xtab qolishi, bradikardiya va gipoksemiya xurujlari bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu sindrom neonatal kasallanish va o‘lim xavfini oshiradi. Apnoeni oldini olish va uning epizodlarini bartaraf etishda metilksantinlar eng samarali davo vositasi hisoblanadi.

Maqsad: Apnoe bilan tug‘ilgan muddatidan oldin chaqaloqlarda metilksantin guruhiga mansub neyrostimulyator qo‘llanilishining klinik samaradorligini baholash.

Materiallar va usullar: Klinik tadqiqotda apnoe sindromiga ega bo‘lgan 80 nafar muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqqa kompleks davo tarkibida metilksantin guruhiga mansub neyrostimulyator berildi (yuklama doza 20 mg/kg vena ichiga, so‘ngra 5 mg/kg sutkada enteral ravishda). Davolashning 5-kunida chaqaloqlarning nafas olish holati hamda laborator-instrumental ko‘rsatkichlar dinamikasi tahlil qilindi.

Natijalar: Neyrostimulyator bilan davolash boshlanganidan 3–5 kun o‘tib, 70% chaqaloqlarda apnoe epizodlari to‘liq to‘xtadi, qolgan 30% hollarda epizodlar soni sezilarli kamaydi (<3 ta sutkada). 85% chaqaloqlarda mustaqil nafas olish tiklandi. 62,5% holatda 3–5 kunda CPAP-terapiya to‘xtatildi, 37,5% holatda sun’iy nafas oldirishga ehtiyoj pasaydi. Qon gazlari tarkibi va metabolik ko‘rsatkichlar yaxshilandi: arterial qonda pH oshdi, pCO_2 me’yorlashdi, laktat darajasi kamaydi, elektrolitlar muvozanati tiklandi. Shuningdek, davolashdan so‘ng yallig‘lanish belgilari pasaydi: qon zardobida interleykin-1, O’NO va C-reaktiv oqsil darajalari sezilarli tushdi. O‘pka UTT ma’lumotlariga ko‘ra, interstitsial o‘pka shikastlanishi belgilari 2 baravar kamaydi. Miya neyrosonografiyasida esa intraventrikulyar qon quyilishlar chastotasi va og‘irligi taxminan 60% ga kamaydi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muddatidan oldin tug‘ilgan apnoeli chaqaloqlar kompleks davosiga metilksantin guruhiga mansub neyrostimulyator qo‘shilishi apnoe epizodlarini tezroq bartaraf etish, nafas yetishmovchiligini kamaytirish, metabolik buzilishlarni tuzatish hamda infeksion-yallig‘lanish asoratlari profilaktikasini yaxshilashda samarali hisoblanadi. Demak, metilksantin preparati bilan davo apnoe sindromli muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlar uchun klinik jihatdan samarali bo‘lib, bunday zaif bemorlar hayot prognozini yaxshilashga xizmat qiladi.